

XALQARO FUQARO AVIATSIYASINI TARTIBGA SOLUVCHI TASHKILOTLAR

Karimov Firdavs Toxir o'g'li

TDTrU Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs Yu-3 guruh talabasi

Pochta manzili: karimovfirdavs1202@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro fuqaro aviatsiyasini tartibga soluvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi, ularning xalqaro havo huquqi tizimidagi o'rni va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida xalqaro fuqaro aviatsiyasining transchegaraviy xususiyati asosida ushbu sohada yagona huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarurati asoslab berilgan. Xususan, xalqaro aviatsiya tashkilotlarining parvozlar xavfsizligini ta'minlash, xalqaro standart va qoidalarni joriy etish hamda davlatlar o'rtasida huquqiy muvofiqlikni ta'minlashdagi roli yoritilgan. Maqolada xalqaro va mintaqaviy aviatsiya tashkilotlarining faoliyati xalqaro-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida baholanib, ularning global havo transporti tizimining barqaror rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy xulosalar bilan asoslab berilgan.

Annotation

This article analyzes the legal status of international civil aviation organizations, their role within the system of international air law, and their practical significance. The study substantiates the necessity of establishing unified legal mechanisms in the field of international civil aviation, taking into account its transboundary nature. Particular attention is paid to the role of international aviation organizations in ensuring flight safety, implementing international standards and rules, and maintaining legal coordination among states. The activities of international and regional aviation organizations are assessed on the basis of international legal instruments and scientific sources, and their importance for

the sustainable development of the global air transport system is supported by reasoned scholarly conclusions.

Kalit soʻzlar: Xalqaro fuqaro aviatsiyasi, xalqaro havo huquqi, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO), xalqaro aviatsiya tashkilotlari, aviatsiya xavfsizligi, xalqaro standartlar va tavsiyalar, parvozlar xavfsizligi, xalqaro hamkorlik, mintaqaviy aviatsiya tashkilotlari, aviatsiya sohasini huquqiy tartibga solish.

Keywords: International civil aviation, international air law, International Civil Aviation Organization (ICAO), international aviation organizations, aviation safety, international standards and recommended practices, flight safety, international cooperation, regional aviation organizations, legal regulation of aviation.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasining bugungi kundagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Fuqaro aviatsiyasi shunchaki transport turi emas, u iqtisodiyotning asosiy dvigatellaridan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiy barqarorlik va bandlik, xalqaro savdo va logistika, turizm va madaniy aloqalar, gumanitar va favqulodda yordam ¹kabi jabhalarda oʻrni katta. Turli davlatlarning minglab samolyotlarida har kuni millionlab yoʻlovchi va yuklar tashiladi. Bunday murakkab va global tizimni tartibga solish alohida mexanizmlarni talab qiladi. Shunday ehtiyojlardan kelib chiqib xalqaro fuqaro aviatsiyasini tartibga soluvchi tashkilotlar tashkil etilgan. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotlari parvozlar xavfsizligini taʼminlash uchun muhimdir. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar va tavsiyalar barcha davlatlar uchun yagona xavfsizlik qoidalarini belgilaydi. Bu esa havo kemalari texnik holati, uchuvchilar malakasi, aeroportlar faoliyati va havo harakatini boshqarish tizimida bir xil talablar boʻlishini taʼminlaydi. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotlari milliy aviatsiya tizimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Xalqaro tashkilotlarga aʼzo davlatlar xalqaro standartlar asosida oʻz milliy qonunchiligini takomillashtiradi. Oʻzbekiston Respublikasi ham xalqaro

¹ https://www.icao.int/search?search_api_fulltext=ecologic+development

standartlardan kelib chiqib aviatsiya qonunchiligini takomillashtirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatning xalqaro aviatsiya hamjamiyatidagi nufuzini oshiradi.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasini tartibga soluvchi asosiy tashkilotlar:

1. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti. 1944-yilda tashkil etilgan, 1947-yildan BMT ixtisoslashgan muassasasi sifatida faoliyat yuritadi.² Ushbu tashkilot maqsadi fuqaro aviatsiyasini xavfsiz, tartibli va barqaror rivojini ta'minlash. ICAO asosiy vazifalari jumlasiga xalqaro aviatsiya standartlarini ishlab chiqish, parvozlar xavfsizligini ta'minlash, havo navigatsiyasi va aeroportlar faoliyatini tartibga solish, aviatsiya xavfsizligi ya'ni terrorizmga qarshi choralar, shuningdek ekologik talablar kiradi. Tashkilot assambleya, kengash, kotibiyat tuzilmasidan iborat. Assambleyada barcha davlatlar a'zo. Kengash doimiy ijro organi, kundalik faoliyatni kotibiyat yuritadi. ICAO butun dunyo aviatsiyasi uchun "konstitutsiya yozuvchi" tashkilot sanaladi.

2. Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi. 1945-yilda tashkil etilgan. Xalqaro havo transportini iqtisodiy jihatdan samarali va qulay qilish mazkur assotsiatsiya asosiy maqsadi hisoblanadi.³ Aviakompaniyalar o'rtasida hamkorlik, chipta va tarif tizimlarini muvofiqlashtirish, yuk tashish qoidalarini ishlab chiqish, yo'lovchilar huquqlarini himoya qilish assotsiatsiya asosiy vazifalariga kiradi. U a'zo aviakompaniyalardan, direktorlar kengashi, texnik va iqtisodiy qo'mitalardan tashkil topgan. Mazkur tashkilot aviakompaniyalar uchun amaliy qo'llanma hisoblanadi.

3. Yevropa fuqaro aviatsiyasi konferensiyasi. 1955-yilda tashkil topgan. Mazkur konferensiya yevropa davlatlari o'rtasida fuqaro aviatsiyasi siyosatini muvofiqlashtiradi. Konferensiya asosiy vazifalari: aviatsiya xavfsizligini kuchaytirish, ICAO standartlarini yevropa sharoitiga moslashtirish, siyosiy va texnik hamkorlik hisoblanadi.⁴ Mazkur

² <https://www.icao.int/history-icao-and-chicago-convention>

³ <https://www.iata.org/en/about/history/>

⁴ <https://www.ecac-ceac.org/>

konferensiya umumiy sessiya, ijroiya qo'mita va ishchi guruhlardan iborat. Bu konferensiya yevropada ICAO siyosatini uyg'unlashtiruvchi ko'prikdir.

4. Yevropa Ittifoqi aviatsiya xavfsizligi agentligi. 2002-yilda tashkil etilgan. Yevropa Ittifoqida aviatsiya xavfsizligini eng yuqori darajada ta'minlash agentlik maqsadi hisoblanadi.⁵ Asosiy vazifalari: havo kemalarini sertifikatlash, parvoz xavfsizligini nazorat qilish, aviakompaniyalarni tekshirish, texnik standartlarni joriy etish. Agentlik Bosh direktor, mutaxassis departamentlar, texnik komissiyalardan tashkil topgan. Mazkur agentlik yevropada aviatsiya xavfsizligining "nazoratchisi"dir.

5. Afrika fuqaro aviatsiyasi komissiyasi. 1969-yilda tashkil etilgan. Afrika davlatlari aviatsiyasini birgalikda rivojlantirish mazkur komissiya bosh maqsadi hisoblanadi.⁶

ICAO standartlarini joriy etish, Afrika havo bozorini rivojlantirish, xavfsizlikni oshirish komissiya asosiy vazifasi sanaladi. Komissiya Assableya, byuro, kotibiyatdan tashkil topgan. Bu komissiya Afrika uchun mintaqaviy aviatsiya koordinatori hisoblanadi.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotlarining ahamiyati, avvalo, ushbu sohaning davlat chegaralaridan tashqarida faoliyat yuritishi bilan izohlanadi. Havo transporti tabiatan transchegaraviy bo'lib, uni faqat milliy qonunchilik doirasida tartibga solish yetarli emas. Shu sababli xalqaro tashkilotlar aviatsiya sohasida yagona huquqiy maydonni shakllantiruvchi asosiy institutlar sifatida maydonga chiqadi.

Birinchidan, xalqaro aviatsiya tashkilotlari huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar va mexanizmlar davlatlar o'rtasida huquqiy noaniqliklarning oldini oladi. Natijada xalqaro parvozlar aniq belgilangan qoidalarga asoslanib amalga oshiriladi va havo hududidan foydalanish masalalarida kelishmovchiliklar kamayadi. Bu holat xalqaro havo huquqining izchil va barqaror qo'llanishini ta'minlaydi.

⁵ <https://ad.easa.europa.eu/>

⁶ https://www.afcac.org/afcac_overview/

Ikkinchidan, ushbu tashkilotlar parvozlar xavfsizligini xalqaro darajada kafolatlashga xizmat qiladi. Xavfsizlik aviatsiya sohasining eng muhim elementi bo'lib, u alohida davlatlar emas, balki global yondashuvni talab etadi. Xalqaro tashkilotlar orqali xavfsizlikka doir talablarning uyg'unlashtirilishi havo kemalari, ekipajlar va aeroportlar faoliyatida bir xil yondashuvni shakllantiradi. Bu esa aviatsiya hodisalari va texnik xatoliklar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Uchinchidan, xalqaro aviatsiya tashkilotlari davlatlarning milliy aviatsiya siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. A'zo davlatlar ushbu tashkilotlar doirasida qabul qilingan normalar asosida o'z ichki qonunchiligini takomillashtiradi. Natijada milliy aviatsiya tizimlari o'zaro moslashadi va xalqaro standartlarga javob bera boshlaydi. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, ushbu tashkilotlar aviatsiya sohasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Xalqaro aviatsiya faoliyati katta moliyaviy va logistika tizimiga ega bo'lib, u muvofiqlashtirilmagan holda samarali ishlashi mumkin emas. Xalqaro tashkilotlar orqali aviakompaniyalar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, bozor munosabatlari barqarorlashadi va raqobat muhitining adolatli shakllanishi ta'minlanadi.

Beshinchidan, xalqaro aviatsiya tashkilotlari zamonaviy global muammolarga huquqiy javob beruvchi institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Ekologiya, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik va yangi texnologiyalarning joriy etilishi kabi masalalar alohida davlat doirasida hal etilishi qiyin. Shu sababli xalqaro tashkilotlar ushbu muammolarga nisbatan umumiy strategiyalar va huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqadi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsam, xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotlari global havo transporti tizimining barqaror, xavfsiz va huquqiy jihatdan tartibli faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim institutlar hisoblanadi. Ular aviatsiya sohasida yagona standart va qoidalarni shakllantirib, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi hamda milliy aviatsiya tizimlarining xalqaro talablarga moslashuviga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro

aviatsiya tashkilotlarining samarali faoliyati xalqaro fuqaro aviatsiyasining izchil rivojlanishi va parvozlar xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Convention on International Civil Aviation (Chicago Convention), 1944
2. International Civil Aviation Organization (ICAO)
<https://www.icao.int>
3. ICAO Annexes to the Chicago Convention (SARPs)
4. International Air Transport Association (IATA)
<https://www.iata.org>
5. Abeyratne R. Aviation Law and Policy. Springer, 2016.
6. European Union Aviation Safety Agency (EASA)
<https://www.easa.europa.eu>
7. European Civil Aviation Conference (ECAC)
<https://www.ecac-ceac.org>
8. Dempsey, P. S. Public International Air Law. McGill University, Institute of Air and Space Law.
9. Shawcross, K., & Beaumont, P. Air Law. Butterworths, London.
10. Bin Cheng. Studies in International Space and Air Law. Oxford University Press.
11. <https://gov.uz/uz/mintrans>
12. https://www.afcac.org/afcac_overview/